



**QASHQADARYO VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI***(2019 yil yanvar-may)*

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4117,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 121,4 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 43,2%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3718,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 277,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 101,0 %) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning ko'pchilik tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qamashi (112,8%), Yakkabog' (111,9%), Kitob (109,1%), Qarshi (107,1%) tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgani yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 43,2 % ni va 121,4 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,0 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 3995,9 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-may oyiga nisbatan 117,9 % ga etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,0% ga teng.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0%), Kitob (100,0 %), Mirishkor (99,9 %), Qarshi (99,6%) va Dehqonobod (99,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

ViLOYAT bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shaxrisabz tumanida (18,4 %), Qarshi shahrida (7,8 %) va Muborak (2,0%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	121,4	100,4	3995,9	104,6
G`uzor	1,6	105,4	164,1	105,3
Dehqonobod	0,3	100,9	211,4	102,5
Qamashi	11,3	112,8	311,7	110,5
Qarshi	0,7	107,1	168,8	107,1
Koson	0,2	102,7	415,1	103,9
Kitob	0,0	109,1	292,2	111,4
Mirishkor	0,2	100,2	192,7	102,3
Muborak	2,5	99,4	121,8	99,6
Nishon	167,8	101,6	167,3	101,6
Kasbi	181,2	99,9	180,6	101,6
Chiroqchi	347,5	98,8	346,5	98,7
Shaxrisabz	157,7	108,2	128,6	97,3
Yakkabog`	246,3	111,9	242,3	110,4
Qarshi sh	880,9	88,5	812,6	106,0
Shaxrisabz sh	241,5	100,3	240,3	102,4

Shahar va tuman kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-may oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1278,9 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 98,3 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (3245,9 ming.so`m), Shaxrisabz shahri (1759,0 ming.so`m) va Mirishkor (1648,9 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Qarshi (699,6 ming.so`m), Shaxrisabz (721,5 ming.so`m) va G`uzor (829,8 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	1278,9	98,3
G`uzor	829,8	103,5
Dehqonobod	1468,8	98,7
Qamashi	1217,0	110,4
Qarshi	699,6	104,7
Koson	1488,8	100,6
Kitob	1125,6	107,0
Mirishkor	1648,9	98,3
Muborak	1462,1	97,3
Nishon	1126,0	99,1
Kasbi	943,1	98,0
Chiroqchi	867,0	96,2
Shaxrisabz	721,5	106,5
Yakkabog`	953,3	109,5
Qarshi sh	3245,9	87,3
Shaxrisabz sh	1759,0	98,4

Jumladan, 2019 yilning yanvar-may oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 %ni tashkil etib, 82,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 104,2 % o`shishga erishildi.


QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1097,7 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-may oyi yakunlariga ko`ra, 643,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,7 % ga o`tdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 58,6 % ni tashkil qilmoqda.

Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




■ Yirik korxonadlar
■ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalar ulushi 41,4 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd..so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	1097,7	101,4	454,1	101,0	643,6	101,7
G`uzor	4,7	53,7	0,1	39,4	4,6	54,2
Dehqonobod	1,9	26,3	0,0	0,0	1,9	26,4
Qamashi	26,5	2,8 m	16,2	2 m	10,2	109,1
Qarshi	53,6	92,9	15,9	03,0	37,7	65,3
Koson	38,4	9*3,4	0,0	0,0	38,4	93,4
Kitob	38,5	122,9	0,0	3,5	38,5	122,9
Mirishkor	35,8	4 m	24,5	0,0	11,3	140,4
Muborak	31,0	163,8	24,9	2 m	6,0	75,6
Nishon	65,3	166,7	28,7	331 m	36,6	93,5
Kasbi	40,6	5,7 m	30,5	383 m	10,1	142,2
Chiroqchi	19,9	41,9	0,0	100,2	19,8	41,9
Shaxrisabz	8,5	50,5	0,1	26,0	8,4	51,1
Yakkabog`	18,0	76,1	0,1	168,1	17,8	75,8
Qarshi sh	667,9	92,0	312,4	71,9	355,6	122,1
Shaxrisabz sh	47,0	118,9	0,5	19,7	46,5	126,3

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgani yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgani yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o`sish sur`atlari Kasbi (5,7 m%) va Mirishkor (4,0 m %), Qamashi (2,8 m%), tumanlarida qayd etildi. Ulgurji tovar aylanmasida o`tgani yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`sish sur`atlari esa Dehqonobod (26,3%) va Chiroqchi (41,9 %), Shaxrisabz (50,5 %) tumanlarida qayd etildi.